
SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Aholining barcha qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish, yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni joyida aniqlash, o'rganish hamda bartaraf etish maqsadida "Qalaynav" mahallasida yoshlar va fuqarolar uchun sayyor qabul o'tkazildi. "Qalaynav" va "Abdullabayon" MFYlari fuqarolari ishtirok etgan sayyor qabulda ishga joylashish, toza ichimlik suvi, sog'ligini tiklash, moddiy yordam olish, elektr energiyasidagi nosozliklarni bartaraf etish, yo'llarni ta'mirlash va asfallytlash kabi masalalar borasida 10dan ziyod taklif va mulohazalar bildirildi. Sayyor qabul davomida aholi vakillari tomonidan bildirilgan masalalarga aniq va tezkor choralar ko'rish bo'yicha tegishli idora rahbarlariga topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olindi. Murojaatlarning 5 tasi joyida hal etildi.

2022-06-07 15:53:11